



**BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHISI KASBIY FAOLIYATIDA "MUSIQA
VA ISLOM" TALQINI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12545108>

Qirg'izov Imyamin

Farg'ona davlat universiteti dotsenti.

qirgizovimyamin@gmail.com, 90-230 70 98

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada diniy manbalardan foydalanilgan holda musiqa qanining muqaddas islom dini ta'limotida tutgan o'rni, shuningdek har bir davrda musiqa ilmining islom dini ahkomlariga mosligi to'g'risida muhokama va mulohaza yuritilib zaruriy xulosalar chiqarilgan.

Kalit so'zlar

musiqa ilmi, islom dini, mustaqillik, tadqiq va tahlil, hadis, musiqa san'ati, tasavvuf ta'limoti, halol va xarom, muboh, inson ma'naviy kamoloti.

**ИНТЕРПРЕТАЦИЯ «МУЗЫКИ И ИСЛАМА» В
ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ
МУЗЫКИ**

АННОТАЦИЯ

В данной статье с использованием религиозных источников обсуждается роль музыки в учении священной религии Ислам, а также совместимость науки о музыке с правилами религии Ислам в каждый период и делаются необходимые выводы, были нарисованы.

Ключевые слова

музыковедение, ислам, независимость, исследование и анализ, хадисы, музыкальное искусство, суфизм, халяль и харам, муба, духовное совершенство человека.

**INTERPRETATION OF "MUSIC AND ISLAM" IN THE PROFESSIONAL
ACTIVITY OF THE FUTURE MUSIC TEACHER**

ABSTRACT

In this article, using religious sources, the role of music in the teaching of the holy religion of Islam, as well as the compatibility of the science of music with the



rules of the religion of Islam in each period, are discussed and the necessary conclusions are drawn.

Key words

musicology, Islam, independence, research and analysis, hadith, musical art, Sufism, halal and haram, mubah, human spiritual perfection.

KIRISH

Bugungi kunda yosh avlod tarbiyasining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida san'at, ayniqsa, musiqa san'ati rivojiga katta ahamiyat berilmoqda. Har bir iste'dod egasi o'z xohishi va imkoniyati doirasida tarbiyalanishga, saboq olishga haqli va buning uchun shart-sharoitlar mavjud.

Davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish, bunda yoshlarga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, yurtimiz yoshlari o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga alohida urg'u berish maqsadida 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi[1]. Bunga ko'ra, dastlabki tashabbus ya'ni, yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish, iste'dodlarini yuzaga chiqarish hisoblanadi. Aynan mazkur tashabbusning amaldagi ijrosini ta'minlash maqsadida hozirgi davrda yosh avlodga o'z qobiliyatini, iqtidorini namoyon etish, rivojlantirish va o'z mahoratini o'stirish uchun barcha tashkiliy va moddiy shart-sharoitlar yaratilib berilmoqda.

Bo'lajak mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi ajdodlarimizning merosi, ularning kasbiy malakasi bilim va tajribasining birligi, uning qobiliyati va tayyorligi, shaxsiy fazilatlariga asoslanadi. U umumiy madaniy, kommunikativ, ijtimoiy-psixologik va boshqa xususiyatlarni birlashtiradi[5]. O'zbekiston sharoitida islomiy qadriyatlar jamiyatimiz ma'anaviy hayotida ustuvorlik kasb etar ekan, musiqiy faoliyat halolmi, xarommi, gunoh yoki mubohmi mazmunidagi qarashlar yuzaga chiqmoqda. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak musiqa o'qituvchisi kasbiy kompetensiyasida "musiqa va islom" tamoyilining zamonaviy ilmlar sirasida ahamiyatidan kelib chiqib, bu masalaning mohiyatini yoritib berish dolzarbdir.

Musiqa san'ati qadimdan yurtimiz madaniyatining uzviy qismi sifatida rivojlanib kelmoqda. VII asrda hududimizga islom dini kirib kelgach, musiqa san'atini ta'qiqlashga urinishlar bo'lgani tarixdan ma'lum. Biroq bu yondashuv Markaziy Osiyo islom dinida muhokama bo'yicha mu'ayyan yumshatishlarga erishilgan[3:1332].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA



Islom dinining Markaziy Osiyodagi jarayonida musiqa ilmi muhim ma'rifat asoslaridan biri sifatida qabul qilingan.

Imom Abul Futuh Ahmad G'azzoliy - "Bavoriqul ilmo' fiy takfiri man yuharrimu mutlaqas samo'" - "Eshitish mutlaqo harom deganlarning kofirligi haqida yarqiragan chaqmoqlar", Hofiz Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali Shavqoniy - "Ibtoli da'val ijmo'i ala tahriymi mutlaqis samo'" - "Qo'shiq eshitishning mutlaqo harom ekanligiga ijmo' borligi da'vosini botil qilish", Imom Hofiz Zahabiy - "Risolutur ruxsati fil g'inaai vat-tarab" - "Qo'shiq va ohangga ruxsat risolasi", Hofiz Shayxul Islom Abu Muhammad Atiyya ibn Sa'id Andalusiy - "Kitobu tajvizi samo'" - "Eshitishning joizligi kitobi", Imom Hujjatul Imom G'azzoliy - "Ihyou ulumiddin"dagi "Kitobus samo"[2] va boshqa kitoblarda aytilishicha, Abu Bakr Siddiq shundan keyin biron joyda ham ashulani harom deb aytmagan ekanlar. Demak, hayit, bayram, shodiyona kunlari yaxshilikka da'vat qiluvchi ashulalar aytilsa, hech qanday zarari yo'q ekan. Shuning uchun ham azaldan islom olamida musiqa san'ati taraqqiy etib kelgan. Hadislar musiqa san'atining bir joyda to'xtalib qolmay, taraqqiy etishiga va uni sog'lomlashtirishga da'vat etib turgan.

Sahobai kiromlardan juda ko'plari muboh qo'shiq tarafdori bo'lishgan. Bunday sahobalar orasida hazrati Umar, Usmon, Abdurahmon ibn Avf, Abu Ubayda ibn Jarroh, Sa'd ibn Abu Vaqqos, Abdulloh ibn Ja'far, Abdulloh ibn Zubayr, Mug'iyra ibn Sho'ba, Muoviya, Ibn Oss, Usoma ibn Zayd, Imron ibn Xusoyn, Bilol ibn Raboh, Hasson ibn Sobit, Hamza ibn Abdulmuttalib, No'mon ibn Bashir, Ubaydulloh ibn Amr, Oysha onamiz va boshqalar (roziyallohu anhum) bor.

Tobeinlardan Sa'yid ibn Musayyab, Solim ibn Abdulloh, Xorija ibn Zayd, Qozi Shurayx, Sa'id ibn Jubayr, Omir Sha'biy, Ibn Abi Atiq, Ato bin Abu Raboh, Umar ibn Abdulaziz, Sa'd ibn Ibrohim va boshqalar muboh qo'shiq va musiqani ma'qullashgan.

Mazhabimiz imomlaridan Abu Hanifa (r.h.)ning aytadigan qo'shnilari borligi, har kecha musiqa chalib, qo'shiq aytishi va u aytmay qo'ygani xavotir bo'lib izlaganlari hamda asirdaligini bilib qutqarib olganlarini hammamiz eshitganmiz. Agar musiqa va qo'shiq batamom ta'qiqlangan bo'lganida Imom Abu Hanifa qo'shnini qo'shiqdan qaytarar edilar.

"Tazkiratul hamduniya" kitobida Abu Hanifa va Savriydan qo'shiq haqida so'ralganida "Kaboirdan ham, yomon sag'oirdan ham emas", deganlari keltirilgan.

Imom Abu Yusufning Xorun ar-Rashid majlisida qo'shiq eshitganlari ma'lum va mashhur haqiqat. Shu o'rinda u quyidagi voqeani keltiradi: payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom ar-Robiya ummi Ma'uz xonadonlariga kirganlarida, kanizaklar qo'shiq kuylayotgan edi; shunda ulardan biri darhol qo'shiqni to'xtatadi



va u kishiga madhiya ayta boshlaydi. Payg'ambarimiz esa: «Buni qo'y, avval nimani aytayotgan bo'lsang, o'shani ayta ber»[4:117-122], – deydilar.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

“Ko'pchilik ulamolar musiqani “muboh” deb ko'rsatadilar, ya'ni, ularning fikricha, musiqa halol ham, harom ham emas. Imom G'azzoliy aytadilarki: “Alloh taolo bandalariga ko'rish uchun ko'z berdi, hid bilish uchun burun ato qildi, qo'l berdi, oyoq berdi. Ko'z ham, quloq ham dunyodagi ne'matlardan foydalanadi, quloqning rohati esa, go'zal ohanglarni, yaxshi suhbatlarni eshitishdadir, quloqning ne'mati yaxshi nag'malar, yaxshi ashulalardir, shunday ekan, nima uchun biz musiqani harom deb hisoblaymiz?”[2:162].

Shundan ma'lum bo'ladiki, musiqa haqidagi ulamolarning uzundan-uzoq bahslari xulosasi, mutlaq ko'pchilik ulamolarning bu borada bergan hukmlari asoslidir.

Hadisi shariflarda musiqa haqida turli xil rivoyatlar bor. Ulardan bir qismi sahih, bir qismi zaifdir. Sahih hadislarda payg'ambarimiz (s.a.v.) musiqani diniy jihatdan yomon tomoni yo'qligini aytib, unga ruxsat berganlar, hatto o'zlari tinglab, sahobalarini ham unga tashviq etganlari rivoyat etilgan.

Musulmon olimlar musiqa haqida turli qarashlarini ilgari surganlar. Ularning ko'pchiligi o'z asarlarida musiqaning umumiy ma'noda halolligini ta'kidlashgan va bu fikrlarini dalillar bilan isbotlashgan.

Qur'oni karimdan:

“Bas, imon keltirgan va solih amallarni qilgan zotlarga ravza (jannat)da shodlanurlar” (Rum surasi, 15-oyat).

Mufassir olimlardan Yahyo ibn Kasir, Avzo'iy va Vaki' oyatdagi “shodlanurlar” so'zini “zavq va qo'shiq” deb tafsir qilganlar. Olimlar oyatning bu tafsiridan kelib chiqib, musiqaning umumiy ma'noda muboh ekanini ta'kidlaganlar. Shunga o'xshash oyati karima Yosin surasida ham keladi: “Albatta, jannat ahli bu Kunda (rohat va farog'at) ish(lari) bilan shoddirlar” (55-oyat).

Muhammad Rasululloh (s.a.v)ning muborak hadislariga murojaat qiladigan bo'lsak, ularning ko'pchiligida musiqa, kuy, ohanglarning halol ekanligi tasdiqlanganligini ko'ramiz. Jumladan, hazrati Muhammad ibn Ismoil Buxoriy tuzgan hadislar to'plamining ikkinchi jildidagi “Nikoh kitobi” qismining 5162-hadisida shunday rivoyat keltiriladi. “Hishom ibn Urva rivoyat qiladilar: “Oysha roziyallohu anho bir kelinni bir ansoriy kuyov huzuriga kuzatib qo'ydilar. Janob Rasululloh: “Ey Oysha, musiqa chalib, o'yin-kulgi bilan kuzatib qo'ydingizlarmi? Ansorlar musiqa chalib, o'yin-kulgi qilishni xush ko'radilar”, dedilar”.

Yana bir misol. Imom Buxoriyda, shuningdek, Imom Muslimda ham kelgan bir hadisda shunday naql qilinadi: “Hazrat Abu Bakr Siddiq Oysha onamizning uylariga kelgan ekanlar, qarasarlar, hazrati Oyshaning huzurlarida ikki joriya



ashula aytib o'tirgan ekan. Qo'llarida soz ham bor. Abu Bakr Siddiq aytibdilarki: "Bu qanaqasi bo'ldi, hazrati Rasulullohning uylarida bu xil shaytonning asbobi yangrab turadimi?" Shu payt uyga Rasululloh (s.a.v) kirib qoldilar. Ul zot aytdilarki: "Qo'ying, ashula aytaversinlar, chunki bugun hayit - bayram!".

Yaxshi musiqa, ohanglar, kuy va o'yinlar xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiradi. Agar biz musiqani harom desak, uni harom deyayotgan ba'zi odamlarning gaplariga qo'shilsak, o'zimiz bilmagan holda madaniyatimizga zarar keltiramiz. Musiqa san'ati bizning xalqaro olamga chiqishimizga ham yordam beradi.

Islom dinining bevosita bir qismini tashkil etuvchi tasavvuf ta'limotida ham musiqaga hamma vaqt halol deb qaralgan, u insonning Allohga bo'lgan buyuk muhabbatining o'ziga xos bir ifodasi sanalgan. Chunki inson o'z qalbidagi ishqi ilohiyini ko'pincha kuy, ashula vositasida ifodalagan.

Hazrat Alisher Navoiy o'zlarining "Nasoyim ul-muhabbat" asarlarida shayx Avhaduddin Kirmoniy haqida so'z yuritib aytadilar: "Alar der ermishlarki, rubob uni behisht eshigining sariridir, agar andin qalbimizga xushnudlik yetsa, jihat budur"[6]. Demak, mutasavvufalar musiqaning inson ma'naviy kamolotidagi ahamiyatini anglab yetganlar.

Ma'lumki, X-XII asrlarda Movarounnahrda yetishib chiqqan Farg'oniy, Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy singari ulug' allomalar faqat aniq fanlar: matematika, astronomiya, geometriya qatorida shuningdek, ijtimoiy fanlardan falsafa, huquq, tilshunoslik, adabiyotshunoslik sohasida chuqur bilimga ega bo'lib qolmay, qomusiy olim bo'lganlar. Binobarin, ular musiqani ham nazariy, ham amaliy jihatdan yaxshi bilganlar, kuylar ijro etganlar, musiqa san'ati haqida risolalar yaratganlar. Forobiyning ta'kidlashicha, ayrim kasalliklarni musiqa yordamida davolash mumkin.

Musiqa madaniyatimiz tarixidan o'chmas o'rin olgan "Shashmaqom"larni eslaylik. Bir necha asrlik tarixga ega bo'lgan bu bebaho durdonalarda xalqimizning hayoti, uning ichki olami, diliga tug'yon solgan ulug' tamannolari, buyuk orzulari o'zining betakror ifodasini topgan. Ayni chog'da ularda insonning Allohga bo'lgan ulug' muhabbati va sadoqati jilolanadi. Xalqimizning mana shunday nihoyatda boy madaniy merosini, butun jahonga mashhur bo'lgan ajoyib kuylari va ashularini mubohligiga ijmo' qilganlar[6].

XULOSA

Ijtimoiy hayotida mavjud barcha sohalar qatori musiqa san'ati ham ajdodlarning bebaho merosidan bahramand bo'lmay turub taraqqiyotga erishish mumkin emas. Shu bois an`analarga sodiq qolish va ularga har lahzada tayanish kelajak samarasi, farzandlar istiqboli va barkamol avlod tarbiyasi garovidir.

O'zbek bastakorlari, san'atshunoslik bo'yicha olimlarning hamda musiqiy ta'lim yo'nalishlarida faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilarining nazariy,



ijodiy, ta'limiy pedagogik qarashlari, musiqiy merosini o'rganish yuzasidan amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa sifatida aytish o'rinliyki, kelajakdagi musiqa o'qituvchisining kasbiy malakasi mazmunida shaxsiy fazilatlar va xususiyatlar asosiy rol o'ynaydi. Zero, qadim yunon mutafakkiri Platon (Aflotun) ning "musiqa davlat haqidagi ta'limotning tarkibiy qismi" va Aristotel (Arastu) ning "musiqa she'riyat nazariyasining bir bo'lagi" degan qarashlaridan farqli o'laroq, X-XI asrlar O'rta Osiyodan chiqqan Forobiyning musiqa ilmiga oid ilmiy asarlari bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasining tarixiy asoslari bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

1. Prezident beshta muhim tashabbusni ilgari surdi.
<https://kun.uz/news/2019/03/20/>
2. «Ихёу улумиддин-дин». – Т.: «Фафур Фулом», 2014. – 512 б.
3. Mahkamova Sh.R. Musiqa ilmi va islom dini: talqin muammosi. Academic research in educational sciences. Volume 1 | ISSUE 3 | 2020. – В. 1331-1334.
4. Газали Абу Хамид. Воскрешение наук о вере. – М.: Наука, 1980. – С. 117-122.
www.ziyouz.com kutubxonasi.
5. Мусика психологияси: Ўқув кўлланма / Тузувчи-муаллиф Р.Ф.Қодиров. Т., 2005.
6. Ҳожи Абдураззоқ Юнусов. Ислом ва мусика. "Жаҳон адабиёти", 2014 йил, 11-сон.